



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (3)



ISSN: 2992-8982 <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
3-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO'LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	28
Pardayev G'ayrat Jabbor o'g'li	
BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI HISOB SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA ASOS SIFATIDA	34
Abdovaxidov Farxod Tuychiyevich	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	41
Bobonarova Kamola	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	47
Azizova Habiba Arslonovna	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI	56
Yusupova Dilbar Mirabidovna	
КАРБОНОВЫЕ КРЕДИТЫ В АГРАРНОМ СЕКТОРЕ КАК ИНСТРУМЕНТ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	61
Абдуллаева Зайнаб Руслановна	
BUXORO ZINDONI VA BOLO HOVUZ ANSAMBLI MISOLIDA TARIXIY OBIDALARNING BARQAROR TURISTIK SIG'IMI TAHLILI	66
Shodiyeva Moxichehra Shokir qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li	



BUXORO ZINDONI VA BOLO HOVUZ ANSAMBLI MISOLIDA TARIXIY OBIDALARNING BARQAROR TURISTIK SIG'IMI TAHLILI

Shodiyeva Moxichehra Shokir qizi

Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrası 1-bosqich magistranti

Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li

Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrası o'qituvchisi i.f.f.d. , PhD
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro viloyatining eng muhim tarixiy-madaniy obidalari Buxoro zindoni va Bolo hovuz ansambli misolida barqaror turistik sig'imni aniqlashning metodologik asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqotda Cifuentes modeli fizik va haqiqiy sig'im ko'rsatkichlarini ketma-ket hisoblashga asoslangan yondashuv tarixiy muhit sharoitiga moslashtirilgan holda qo'llanilgan. Har ikki obyekt uchun kunlik va yillik turistik oqim chegaralari tabaqalashtirilgan tarzda tahlil qilingan. Fizik infratuzilma, tashrif buyuruvchilar zichligi, me'moriy yuzalarning sezgirlik darajasi hamda obidalar atrofidagi ekologik muvozanat omillari hisobga olingan. Tadqiqot natijalari ko'rsatmoqdaki, hozirgi turistik oqim ba'zi zonalarda ruxsat etilgan me'yordan oshib ketmoqda, bu esa obyekt larning uzoq muddatli saqlanishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Maqolada turistik sig'imni optimallashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan: zonalash tizimini joriy etish, tashrif vaqtini tartibga solish va monitoring mexanizmlarini kuchaytirish taklif etilgan.

Kalit so'zlar: turistik sig'im, fizik sig'im, haqiqiy sig'im, Buxoro, Zindon ansambli, Bolo Havuz, YUNESKO Jahon merosi, Cifuentes modeli, barqaror turizm.

Abstract. This article studies the methodological foundations of determining sustainable tourist capacity using the example of the most important historical and cultural monuments of the Bukhara region, the Bukhara Dungeon and the Bolo Pool Ensemble. The study uses the Cifuentes model, an approach based on the sequential calculation of physical and real capacity indicators, adapted to the historical environment. The daily and annual tourist flow limits for both objects are analyzed in a differentiated manner. The factors of physical infrastructure, visitor density, sensitivity of architectural surfaces, and ecological balance around the monuments are taken into account. The results of the study show that the current tourist flow exceeds the permissible norm in some zones, which affects the long-term preservation of the objects. The article develops practical recommendations for optimizing tourist capacity: it is proposed to introduce a zoning system, regulate visiting hours, and strengthen monitoring mechanisms.

Key words: tourist capacity, physical capacity, real capacity, Bukhara, Zindon ensemble, Bolo Khavuz, UNESCO World Heritage Site, Cifuentes model, sustainable tourism.

Аннотация. В данной статье изучаются методологические основы определения устойчивого туристического потенциала на примере важнейших историко-культурных памятников Бухарского региона: Бухарской темницы и ансамбля Боло-Кувуз. В исследовании используется модель Сифуэнтеса — подход, основанный на последовательном расчете показателей физической и реальной вместимости, адаптированный к исторической среде. Дифференцированный анализируются суточные и годовые пределы туристического потока для обоих объектов. Учитываются факторы физической инфраструктуры, плотности посетителей, чувствительности архитектурных поверхностей и экологического баланса вокруг памятников. Результаты исследования показывают, что текущий туристический поток в некоторых зонах превышает допустимую норму, что влияет на долгосрочное сохранение объектов. В статье разработаны практические рекомендации по оптимизации туристического потенциала: предлагается ввести систему зонирования, регулировать часы посещения и усилить механизмы мониторинга.

Ключевые слова: туристический потенциал, физическая вместимость, реальная вместимость, Бухара, ансамбль Бухарской темницы, Боло-Кувуз, объект Всемирного наследия ЮНЕСКО, модель Сифуэнтеса, устойчивый туризм.



KIRISH

Hozirgi kunda global turizm sanoati jahon iqtisodiyotining eng barqaror va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. 2025-yil yakunlari va 2026-yilning birinchi choragi tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, xalqaro sayyohlik oqimi pandemiya davridan oldingi ko'rsatkichlarni to'liq ortda qoldirib, yangi o'sish bosqichiga chiqdi [1]. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Turizm tashkiloti (UN Tourism) ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda jahon bo'ylab xalqaro sayyohlar soni 1,5 milliarddan oshdi, bu esa tarmoqning global yalpi ichki mahsulotdagi ulushini yanada mustahkamladi [2].

O'zbekiston ushbu global jarayonlarning markazida turib, Markaziy Osiyoning asosiy turistik markaziga aylanib bormoqda. 2025-yil yakunlari bo'yicha mamlakatimizga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni rekord darajadagi 9 milliondan oshdi, 2026-yil uchun esa bu ko'rsatkichni 10 milliondan o'tkazish kutilmoqda [3]. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilanganidek, turizm xizmatlari eksportini 6 milliard dollarga yetkazish maqsadi doirasida infratuzilmani modernizatsiya qilish va tarixiy shaharlarning barqarorligini ta'minlash ustuvor vazifa etib belgilangan [4].

Ushbu ulkan o'sish sur'atlari kontekstida Buxoro shahri o'zining 2600 yillik boy tarixi bilan mamlakat turizm brendining asosiy ustunlaridan biri bo'lib qolmoqda. 1993-yilda YUNESKO Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan Buxoro tarixiy markazi o'rta asrlar shaharsozlik san'atining noyob namunasi sifatida nafaqat me'moriy yaxlitligi, balki ijtimoiy-madaniy ahamiyati bilan ham ajralib turadi [5; 6]. Biroq, sayyohlar oqimining tinimsiz ortishi tarixiy obyektlarning jismoniy holatiga va hududning ekologik muvozanatiga ma'lum darajada bosim o'tkazmoqda.

Zamonaviy meros boshqaruvida "Haddan tashqari turizm" (Overtourism) muammosi dolzarb masalaga aylandi. Srivastava va boshqa tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, nazorat qilinmagan antropogen bosim madaniy meros obyektlarining asl qiyofasini yo'qotishiga va sayyohlar qoniqish darajasining pasayishiga olib keladi [8; 9]. Shu bois, tarixiy obidalarning "Turistik sig'im imkoniyatlari"ni (Tourism Carrying Capacity TCC) ilmiy asosda aniqlash va boshqarish bugun har qachongidan ham muhimroq.

Mazkur tadqiqot Buxoro tarixiy markazidagi ikki muhim me'moriy obida "Zindon ansambli" hamda "Bolo Havuz ansambli" misolida turistik sig'im ko'rsatkichlarini hisoblashni maqsad qilgan. Tadqiqotda Cifuentes metodologiyasidan foydalanilgan holda, ushbu obyektlarning fizik (PCC) va haqiqiy (RCC) sig'im ko'rsatkichlari 2026-yilning zamonaviy talablari va iqlim sharoitlaridan kelib chiqib tahlil qilingan. Bu esa Buxoroning tarixiy qiyofasini saqlagan holda turizmni barqaror rivojlantirish uchun ilmiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turistik sig'im tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi

Turistik sig'im (Tourism Carrying Capacity - TCC) tushunchasi dastlab ekologiya va tabiatni muhofaza qilish sohasida qo'llanilgan bo'lsa-da, keyinchalik sayyohlik fanida mustaqil metodologik yo'nalishga aylandi. Srivastava ta'kidlashicha, TCC o'z mohiyatiga ko'ra "ma'lum bir hududda sayyohlik faoliyatining salbiy oqibatlarini yuzaga keltirmasdan qabul qilish mumkin bo'lgan ziyoratchilarning maksimal soni"ni anglatadi [8]. Ushbu ta'rif vaqt o'tishi bilan kengayib ekologik, ijtimoiy va boshqaruv chegaralarini ham o'z ichiga oldi [10].

Metodologik jihatdan bugungi kunda eng keng tarqalgan yondashuv Cifuentes tomonidan IUCN (Tabiatni Muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqi) uchun ishlab chiqilgan uch bosqichli model hisoblanadi [9]. Ushbu model Fizik sig'im (PCC), Haqiqiy sig'im (RCC) va Samarali sig'im (ECC) bosqichlarini o'z ichiga olib, har bir keyingi bosqich oldingi bosqichning tuzatish koeffitsiyentlari orqali hisoblangan qiymatidir. Aylanish koeffitsiyenti tushunchasini metodologiyaga birinchi bo'lib Boullon kiritgan bo'lib, u "kunlik ochiq soatlar / o'rtacha tashrif davomiyligi" formulasini taklif qilgan [14]. Mazkur formula hozirgi kunda ham barcha TCC tadqiqotlarining asosiy hisoblash vositasi bo'lib qolmoqda [9; 13].

Madaniy meros destinatsiyalarida TCC tadqiqotlari

Xalqaro miqyosda TCC metodologiyasini madaniy meros saytlarida qo'llash bo'yicha tadqiqotlar soni so'nggi o'n yilliklarda keskin oshdi. Magabli va Al-Shorman Iordaniyadagi Petra YUNESKO meros saytida fizik sig'imni hisoblash bo'yicha muhim tadqiqot o'tkazdilar [12]. Boullon modelidan foydalangan holda hisoblangan natijalarga ko'ra, Petra uchun oylik sig'im 16 200 ziyoratchi tashkil etgan, biroq shu bilan birga ushbu ko'rsatkich yanvar oyidan tashqari barcha fasllar davomida oshib ketgani aniqlangan [12]. Tadqiqot tarixiy obyektlarda sayyohlar oqimini mavsumiy taqsimlashning zarurligini ko'rsatdi.

Diniy va ziyoratgoh maqomidagi meros saytlari uchun maxsus TCC hisoblash metodologiyasini Jangra va Kaushik (2017) Hindistondagi Kurukshetra shahridagi Brahm Sarovar saytida sinab ko'rdilar [13]. Ular IUCN formulasi asosida beshta ko'rsatkich - maydon, avtotur joy, hojatxona, ichimlik suvi va yo'lak - bo'yicha alohida PCC hisob-kitoblarini amalga oshirib, saytning kunlik maksimal quvvati 567534 ziyoratchi ekanligini aniqladilar [13]. Ushbu tadqiqotning metodologik hissasi shundaki, turli funksional zonalar uchun bir kishiga mo'ljallangan maydon me'yorlari (1 m² dan 10 m² gacha) tabaqalashtirilgan holda qo'llanilgan.



Erdogan (2025) Turkiyaning Amasya shahridagi ko'p xususiyatli YUNESKO meros saytida Cifuentes modelini zamonaviy meros kontekstiga muvaffaqiyatli moslashtirib, PCC, RCC, ECC va ijtimoiy sig'im (SCC) ni birgalikda hisobladi [11]. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, hatto umumiy sig'im yetarli bo'lgan hollarda ham alohida zonalarning sig'imi oshib ketishi mumkin - bu holat me'moriy buzilishlarga, mahalliy aholining noroziligiga va sayyohlik tajribasining yomonlashishiga olib keladi [11]. Bundan tashqari, Makhadmeh va boshq. (2020) lordaniya dekapolis shaharlaridan biri - Jerash (Gerasha) arxeologik saytida GAT modellashtirish yordamida sig'imni hisoblash metodologiyasini ishlab chiqdilar va turistlar oqimining me'moriy yodgorliklar xavfsizligini jiddiy xavf ostiga qo'yayotganini aniqladilar [18].

Sayyohlik sig'imining nazariy asoslari, TALC modeli va ijtimoiy yondashuv

Turistik sig'im muammosi faqat miqdoriy ko'rsatkich bilan cheklanmaydi. U sayyohlik manzilining hayot sikli (TALC) bilan chambarchas bog'liq. Butler taklif qilgan TALC modeli kashfiyot, jalb etish, rivojlanish, konsolidatsiya, turg'unlik va tanazzul bosqichlari sayyohlik sig'imining oshib ketishi qanday qilib manzilning o'z-o'zini yo'q qilishiga olib kelishi mumkinligini tushuntiradi [15]. Doxey (1975) esa mahalliy aholining sayyohlarga munosabatini ifodalovchi "Bezovtalanish indeksi" (Irridex) modelini ishlab chiqib, sig'imdan oshib ketish ijtimoiy munosabatlarga ham salbiy ta'sir qilishini ko'rsatdi [17]. YUNESKO/ICCROM/ICOMOS/IUCN (2022) tomonidan ishlab chiqilgan "Jahon merosi kontekstida ta'sir baholash bo'yicha qo'llanma" Buxoro kabi YUNESKO obyektlarida sig'im baholashning huquqiy-metodologik asosini belgilaydi [16]. Ushbu hujjat sayt boshqaruvchilari uchun sig'im hisoblashni majburiy amaliyotga aylantirish zarurligini ta'kidlaydi.

O'zbekiston va Buxoro kontekstida tadqiqotlar

O'zbekiston, xususan Buxoro shahridagi tarixiy meros obyektlarida TCC ni o'lchashga qaratilgan maxsus tadqiqotlar hali yetarli darajada emas. Mavjud ishlar asosan meros turizmining umumiy rivojlanish muammolari yoki GAT texnologiyalari yordamida marshrut optimallashtirish bilan chegaralanadi. Kilichov va boshqalar Buxorodagi meros turizmini rivojlantirishda GAT texnologiyalaridan foydalanib, sayyohlik marshrutlarini optimallashtirish modelini taklif qildilar, biroq konkret sig'im ko'rsatkichlarini o'lchamadilar [7]. Khamidov va Khayrullaeva esa Buxoro viloyatida barqaror turizm rivojlantirish masalasini ko'rib chiqib, turistik infratuzilmaning yetarli emasligi va obyektlarning haddan ortiq zo'riqishi muammolarini belgiladilar [6].

Mazkur adabiyotlar sharhidan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, Cifuentes metodologiyasi xalqaro miqyosda meros saytlarida samarali qo'llanilayotgan bo'lsa-da [9; 11; 12; 13], Buxoro tarixiy markazidagi alohida obyektlar uchun dala tadqiqotlariga asoslangan miqdoriy sig'im o'lchovlari hali amalga oshirilmagan. Ushbu tadqiqot aynan mazkur bo'shliqni to'ldirish maqsadini ko'zlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot Buxoro tarixiy markazidagi Zindon ansambli va Bolo Havuz ansambli obyektlarida dala tadqiqotlari orqali fizik va haqiqiy sig'imni o'lchashga asoslangan. Metodologik asos sifatida Cifuentes tomonidan IUCN uchun ishlab chiqilgan va Erdogan tomonidan meros saytlarida tasdiqlangan uch bosqichli model qabul qilindi [9; 11]. Ushbu tadqiqotda PCC va RCC bosqichlari hisoblandi. ECC esa keyingi tadqiqot bosqichiga qoldirildi.

Ma'lumotlar ikki yo'l bilan yig'ildi: 1) GPS o'lchov asboblari va kadastr hujjatlari yordamida obyekt maydonlari aniqlandi; 2) har bir obyektida kamida 50 ziyoratchi kuzatildi, kirish va chiqish vaqtlari qayd etilib, o'rtacha tashrif davomiyligi hisoblandi.

Fizik Sig'im (PCC) formulasi

Tadqiqotda obidalarning jismoniy imkoniyatlarini aniqlash uchun fizik sig'im ko'rsatkichi hisoblandi. Fizik sig'im (PCC) — bu ma'lum bir vaqt oralig'ida (odatda bir kun) obyektning jismoniy maydoni va vaqt omillarini hisobga olgan holda qabul qilishi mumkin bo'lgan maksimal ziyoratchilar sonidir. Hisob-kitoblar quyidagi formula asosida amalga oshirildi:

$$PCC = \frac{V}{a} \times R_f$$

Bu yerda:

- V — ziyorat qilish uchun ochiq bo'lgan umumiy foydali maydon (m²);
- a — bir ziyoratchi uchun zarur bo'lgan minimal maydon normasi (m²);

• R_f — aylanish koeffitsiyenti (bir kunda ziyoratchilar oqimining necha marta almashishi $R_f =$

Open hours
Average visit time).

Fizik sig'im quyidagi formula asosida hisoblandi [9; 14]:

$$PCC = S \times U$$



Bu yerda:

$$S = \frac{E}{a_{och}} + \frac{G}{a_{yop}} + \frac{H}{a_{tor}} + \frac{I}{a_{min}} - \frac{K}{a_{och}} - \frac{L}{a_{och}}$$

$$U = \frac{\text{Ochiq soatlar}}{\text{Tashrif vaqti (daq)/60}}$$

Belgilar izohi:

Belgi	Ma'no	Bir kishiga maydon (a)
E	Ochiq maydon / hovli	3.0 m ²
G	Yopiq / ichki zal	2.0 m ²
H	Tor yo'lak (< 2 m)	1.2 m ²
I	Minora / tor ko'tarilish	1.1 m ²
K	Hovuz / suv - ayiriladi	3.0 m ²
L	Bog' / gulzor - ayiriladi	3.0 m ²

a qiymatlari Jangra va Kaushik va Cifuentes tavsiyalariga asoslangan [9; 13].

Haqiqiy Sig'im (RCC) formulasi

Haqiqiy sig'im PCC ga iqlim va savdo zonasi tuzatish koeffitsiyentlari tatbiq etilishi orqali hisoblandi [9; 11]:

$$RCC = PCC \times \left(1 - \frac{M + N + O}{\Sigma A}\right) \times \left(1 - \frac{d_{issiq}}{365}\right) \times \left(1 - \frac{d_{sovuq}}{365}\right)$$

Bu yerda M - savdo rastasi, N - muzey eksponati, O - xizmat texnik zonasi maydoni; d_{issiq} - yiliga 35°C dan yuqori kunlar soni (82 kun), d_{sovuq} - yiliga 0°C dan past kunlar soni (30 kun) O'zgidromet ma'lumotlari asosida [9].

Natijada umumiy iqlim koeffitsiyenti = 71.16% qabul qilindi, ya'ni PCC ning 28.84 %i iqlim cheklovlari sababli kamaytirildi.

Yillik va mavsumiy sig'im

Kunlik ko'rsatkichlardan yillik va mavsumiy sig'imlar quyidagicha hisoblandi:

$$PCC_{yillik} = PCC \times 365$$

$$RCC_{yillik} = RCC \times 365$$

$$PCC_{mavsum} = PCC \times 253$$

$$RCC_{mavsum} = RCC \times 253$$

Bu yerda 253 kun yilning issiq va sovuq kunlardan ozod bo'lgan faol mavsumi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zindon Ansambli

Fizik sig'im (PCC) (1-jadval)

1-jadval. Zindon ansambli - maydon tarkibi

Zona turi	Maydon(m ²)	Amal
Ochiqmaydon/hovli(E)	261	qo'shiladi
Yopiq / ichki zal (G)	338	qo'shiladi
Tor yo'lak	44	qo'shiladi
Muzey eksponati (N)	17	RCC tuzatishi
Xizmat texnik zona (O)	5	RCC tuzatishi



Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, Zindon ansamblining umumiy maydoni tarkibida yopiq hududlar (ichki zallar) 338 m² bilan yetakchi o'rinni egallaydi. Bu obidaning yopiq turdagi meros obyekti ekanligini tasdiqlaydi. Tadqiqotda aniqlangan 17 m² muzey eksponatlari va 5 m² xizmat zonalarini haqiqiy sig'imni hisoblashda cheklovchi omillar sifatida kiritildi. Obyektning tor yo'laklari (44 m²) turistlar harakati dinamikasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy nuqtalar (bottlenecks) sifatida baholanadi (2-jadval).

2-jadval. Zindon ansambli - sig'im natijalari

Ko'rsatkich	Qiymat
Sig'im summasi	292.7
Ochiq soat / Tashrif vaqti	9 soat / 30 daqiqa
Aylanish koeffitsiyenti	18
Iqlim koeffitsiyenti	71.16%
Fizik sig'im - PCC	5 269 ziyoratchi/kun
Haqiqiy sig'im - RCC	3 608 ziyoratchi/kun
Yillik PCC	1 923 185 ziyoratchi/yil
Yillik RCC	1 316 920 ziyoratchi/yil
Mavsumiy PCC (253 kun)	1 333 057 ziyoratchi/mavsum
Mavsumiy RCC (253 kun)	912 824 ziyoratchi/mavsum

Hisob-kitoblar natijasida Zindon ansamblining fizik sig'imi (PCC) kuniga 5 269 kishini tashkil etishi aniqlandi. Biroq, mintaqaning keskin kontinental iqlimi (yozgi issiq va qishki sovuq kunlar) hamda obida ichidagi texnik cheklovlar natijasida haqiqiy sig'im (RCC) kuniga 3 608 ziyoratchigacha qisqardi. Bu shuni anglatadiki, obidaning me'moriy yaxlitligini saqlash uchun kunlik oqim 3,6 ming kishidan oshmasligi lozim. Mavsumiy RCC ko'rsatkichi (912 824 kishi) yilning faol 253 kunida obyektning umumiy o'tkazuvchanlik salohiyatini aks ettiradi (3-jadval).

Bolo Havuz Ansambli
Fizik sig'im (PCC)

3-jadval. Bolo Havuz - maydon tarkibi

Zona turi	Maydon (m ²)	Amal
Ochiq maydon / hovli (E)	3746	qo'shiladi
Yopiq / ichki zal (G)	300	qo'shiladi
Hovuz / suv (K)	581	Ayiriladi
Bog' / gulzor (L)	300	Ayiriladi
Xizmat texnik zona (O)	2224	RCC tuzatishi

Bolo Havuz ansamblining maydon tarkibi Zindon ansamblidan tubdan farq qiladi. Bu yerda asosiy maydon ochiq hududga (3 746 m²) to'g'ri keladi. Metodologiyaga muvofiq, hovuz (581 m²) va bog'-gulzorlar (300 m²) "ayiriladigan maydonlar" toifasiga kiritildi, chunki ular bevosita turistlar turishi uchun mo'ljallanmagan. E'tiborli jihati, xizmat va texnik zonalar (2 224 m²) umumiy hududning katta qismini egallab, obidaning foydali turistik maydonini cheklab qo'yimoqda (4-jadval).

4-jadval. Bolo Havuz ansambli - sig'im natijalari

Ko'rsatkich	Qiymat
Sig'im summasi	1630,0
Ochiq soat / Tashrif vaqti	9 soat / 30 daqiqa
Aylanish koeffitsiyenti	18
Iqlim koeffitsiyenti	71.16%
Savdo tuzatishi	0%



Fizik sig'im - PCC	29 340 ziyoratchi/kun
Haqiqiy sig'im - RCC	12 233 ziyoratchi/kun
Yillik PCC	10 709 100 ziyoratchi/yil
Yillik RCC	4 465 045 ziyoratchi/yil
Mavsumiy PCC (253 kun)	7 423 020 ziyoratchi/mavsum
Mavsumiy RCC (253 kun)	3 094 949 ziyoratchi/mavsum

Bolo Havuz ansambli uchun olingan PCC ko'rsatkichi (29 340 kishi/kun) uning ochiq arxitekturaviy tuzilishi tufayli juda yuqori ekanligini ko'rsatadi. Biroq, haqiqiy sig'im (RCC) 12 233 kishi/kun darajasida belgilandi. Olingan natijalar obyektning yillik sig'imi 4,4 million ziyoratchidan oshmasligi kerakligini ilmiy asoslaydi. Iqlim koeffitsiyentining 71.16% deb olinishi, ochiq osmon ostidagi ushbu obidada sayyohlar qulayligi iqlimiy omillarga yuqori darajada bog'liqligini ko'rsatadi (5jadval).

Qiyosiy tahlil va muhokama

5-jadval. Ikki obyektning yakuniy qiyosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Zindon	Bolo Havuz
Foydalanish maydoni (m ²)	261	3 746
PCC (ziyoratchi/kun)	5 269	29 340
RCC (ziyoratchi/kun)	3 608	12 233
RCC/PCC nisbati (%)	68.4	41.6
Yillik RCC	1 316 920	4 465 045
Mavsumiy RCC	912 824	3 094 949

5-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, Bolo Havuz ansamblining fizik sig'imi juda yuqori bo'lsa-da, uning haqiqiy sig'imi (RCC) fizik imkoniyatidan deyarli 2.4 barobar kamdir. Bu holat obyektning me'moriy tuzilishidagi yirik texnik zonalarning ta'sirini yaqqol ko'rsatadi. Zindon ansamblida esa grafiklar bir-biriga yaqinroq joylashgan bo'lib, bu hududdan foydalanish samaradorligi (RCC/PCC) yuqoriroqligini anglatadi.

Bolo Havuz va Zindon ansamblari o'rtasida fizik sig'im (PCC) bo'yicha keskin — deyarli 5.6 barobar farq mavjud. Bu tafovut bevosita ushbu meros obyektlarining me'moriy tuzilishi va foydalanish maydonlari hajmidan kelib chiqadi.

Bolo Havuz ansambli o'zining keng ochiq hovlisi va ayvon qismi (3746 m²) hisobiga juda yuqori fizik sig'imga (kuniga 29 340 ziyoratchi) ega. Biroq, obyektning Haqiqiy sig'imi (RCC) fizik imkoniyatlaridan ancha past 12 233 ziyoratchi/kun. Buning asosiy sababi shundaki, ansambl hududida yirik xizmat va texnik zonalar (2224 m²) mavjud bo'lib, ular umumiy sig'imni sezilarli darajada pasaytiradi. Shu sababli, Bolo Havuzda RCC/PCC nisbati 41.6% ni tashkil etdi.

Zindon ansambli esa, maydon jihatidan kichikroq (261 m²) bo'lishiga qaramay, maydondan foydalanish samaradorligi bo'yicha yuqoriroq ko'rsatkichni namoyon etdi (RCC/PCC nisbati 68.4%). Bu ko'rsatkich Zindon hududidagi foydali maydonlarning ziyoratchilar oqimi uchun optimal taqsimlanganligidan dalolat beradi. Biroq, Zindon ansambli tarkibidagi tor yo'laklar (44 m²) pik mavsumlarda ziyoratchilar harakatiga cheklovlar qo'yishi mumkin.

Xalqaro qiyoslov: A. Erdogan (2025) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda meros obyektlari uchun RCCning PCCga nisbati 40-70% oralig'ida bo'lishi barqarorlik ko'rsatkichi deb hisoblanadi [11]. Bizning natijalarimiz (41.6% va 68.4%) ushbu xalqaro me'yorlar doirasida joylashgan bo'lib, hozircha obyektlarda sig'im chegarasining buzilishi (overtourism) kuzatilmayotganini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Buxoro tarixiy markazidagi Zindon va Bolo Havuz ansamblari misolida o'tkazilgan ushbu tadqiqot meros obyektlarini boshqarishda miqdoriy sig'im tahlilining naqadar muhimligini ko'rsatib berdi. Olingan natijalar asosida quyidagi yakuniy xulosalar shakllantirildi:

1. Miqdoriy ko'rsatkichlar: Cifuentes metodologiyasi asosida o'tkazilgan hisob-kitoblar Zindon ansambli uchun kunlik haqiqiy sig'im limitini 3 608 nafar, Bolo Havuz ansambli uchun esa 12 233 nafar ziyoratchi deb belgiladi. Bu raqamlar obyektlarning me'moriy barqarorligini saqlagan holda qabul qilishi mumkin bo'lgan maksimal oqimni ifodalaydi.



2. Barqarorlik darajasi: Tadqiqot obyekti bo'lgan ikkala maskanda ham RCC/PCC nisbati xalqaro standartlar (40-70%) doirasida ekanligi aniqlandi. Bu 2026-yilning faol turistik mavsumida ham ushbu obyektlarda hozircha "tashqari turizm" (overtourism) inqirozi mavjud emasligidan dalolat beradi.

3. Cheklovchi omillar: Bolo Havuz ansamblida foydali maydonning katta qismi (2224 m²) texnik va xizmat zonalariga to'g'ri kelishi uning haqiqiy sig'imini fizik imkoniyatidan 58.4% ga kamaytirishi aniqlandi. Zindon ansamblida esa tor yo'laklar (44 m²) asosiy "tiqilinch" nuqtalari sifatida qayd etildi.

4. Amaliy tavsiyalar: Buxoro madaniy meros boshqarmasiga Zindon uchun kunlik 3,6 ming, Bolo Havuz uchun 12,2 ming ziyoratchi limitini boshqaruv tizimiga (elektron chiptalar va monitoring orqali) joriy etish tavsiya etiladi. Shuningdek, Bolo Havuz ansamblidagi texnik zonalarini optimallashtirish orqali ziyoratchilar uchun foydali maydonni kengaytirish imkoniyati mavjud.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot O'zbekistondagi boshqa tarixiy shaharlar uchun ham meros obyektlarini ilmiy asosda boshqarishning namunaviy modelini taqdim etadi. Kelajakda ushbu hisob-kitoblarni infratuzilma va xizmat ko'rsatish xodimlari salohiyatini hisobga olgan holda Samarali sig'im (ECC) darajasigacha kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. UN Tourism. World Tourism Barometer and Statistical Annex. – Madrid, 2025. – Vol. 23, No. 1. – URL: <https://www.e-unwto.org> (tashrif sanasi: 27.04.2026).
2. UN Tourism. International Tourism Recovers Pre-Pandemic Levels in 2024. – 2024. – URL: <https://www.untourism.int> (tashrif sanasi: 27.04.2026).
3. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. 2025-yil yakunlari bo'yicha turizm statistikasi hisoboti. – Toshkent, 2026. – 45 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida. PF-21-son, 16.02.2026 // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz>.
5. UNESCO World Heritage Centre. Historic Centre of Bukhara. – URL: <https://whc.unesco.org/en/list/602/> (tashrif sanasi: 27.04.2026).
6. Khamidov O., Khayrullaeva N. Sustainable Tourism Development in the Bukhara Region // Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education. – 2021. – Vol. 1, No. 1. – P. 12-25.
7. Kilichov M. et al. Optimizing Sustainable Tourism Routes through GIS to Enhance Tourist Length of Stay in Bukhara // Journal of Cultural Analysis and Social Change. – 2026. – Vol. 11, No. 1. – P. 1771-1787.
8. Srivastava N. Measurement of Carrying Capacity of Tourist Destinations // International Journal of Tourism and Travel. – 2017. – Vol. 10, No. 1. – P. 38-46.
9. Cifuentes Arias M. Determinación de capacidad de carga turística en áreas protegidas. – Turrialba: CATIE, 1992. – 28 p.
10. UNWTO. Indicators of Sustainable Development for Tourism Destinations – A Guidebook. – Madrid: UNWTO, 2004. – 516 p.
11. Erdoğan A. Carrying Capacity Assessments for Sustainable Tourism in a Heritage Site // Advances in Hospitality and Tourism Research (AHTR). – 2025. – Vol. 13, No. 3. – P. 237-274.
12. Magablih K., Al-Shorman A. The Physical Carrying Capacity at the Cultural Heritage Site of Petra // Tourism Analysis. – 2009. – Vol. 13, No. 5-6. – P. 511-515.
13. Jangra R., Kaushik S.P. Assessment of Physical Carrying Capacity for Managing Sustainability at Religious Tourist Destinations // International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage. – 2017. – Vol. 5, Iss. 1. – P. 22-35.
14. Boullon R. Framework Guidelines for Assessing Carrying Capacity. – Rome: FAO Corporate Document Repository, 1985. – 34 p.
15. Butler R.W. The Concept of a Tourist Area Cycle of Evolution // Canadian Geographer. – 1980. – Vol. 24, No. 1. – P. 5-12.
16. UNESCO; ICCROM; ICOMOS; IUCN. Guidance and Toolkit for Impact Assessments in a World Heritage Context. – Paris: UNESCO, 2022. – 148 p.
17. Doxey G.V. A Causation Theory of Visitor-Resident Irritants. – San Diego: Travel and Tourism Research Association, 1975. – P. 95-103.
18. Makhadmeh A. et al. Evaluating the Carrying Capacity at the Archaeological Site of Jerash (Gerasa) Using Mathematical GIS Modeling // Egyptian Journal of Remote Sensing and Space Sciences. – 2020. – Vol. 23, No. 2. – P. 159-165.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>